





2019 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan 5646,4 mlrd.so'mlik investitsiyalar yo'naltirildi, shundan 86,4 % jalb qilingan mablag'lar, 13,6 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ta'minlandi.






Moliyashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi quyidagicha taqsimlandi – hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar–20,2% ni, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar–15,8 % ni, aholi mablag'lari–9,4 % ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari–12,5 %, korxonalar mablag'lari–13,6 % ni, respublika byudjeti–5,2 % ni, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish–0,5 % ni, tiklanish taraqqiyot jamg'armasi–18,1 % ni va boshqa mablag'lar-4,7 % ni tashkil etdi.

Moliyashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (umumiy hajmdagi ulushi,%)






Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari

	Mrd.so'm	O'sish surati, %	Umumiy hajmga nisbatan % da
Barcha moliyalashtirish manbalari	5646,4	199,3	100,0
Respublika byudjeti	292,1	473,4	5,2
Tiklanish va taraqqiyot	1021,7	-	18,1
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish	27,1	-	0,5
Xukumat tomonidan kafolatlangan chet-el investitsiyalari va kreditlari	1142,5	159,9	20,2
Korxonalarining mablag'lari	767,1	118,9	13,6
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	707,6	105,0	12,5
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar	889,4	489,4	15,8
Axoli mablag'lari	531,7	138,9	9,4
Boshqa mablag'lar	267,2	-	4,7



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida mlrd.so'mda




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari To'raqo'rg'on tumanida kuzatildi, ularning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga oshganligini ko'rishimiz mumkin



2018/11/22 15:05




Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar





Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning rivojlanishi hali ham To'raqo'rg'on tumanida hukmronlik qilmoqda. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 43,8 foizi o'zlashtirildi, umumiy hajmda Namangan shahri 18,7 foizni tashkil etdi Pop va Namangan tumanida 4,6 foiz, Yangiqo'rg'on tumanida 4,3 foizni tashkil etmoqda.




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibiga ko'ra qurilish-montaj ishlari 1592,3 mlrd.so'mga etkazildi, asbob-uskunalar va jihozlar 3758,7 mlrd.so'mga, boshqa kapital ishlar va xarajatlar esa 295,4 mlrd.so'mga yetdi.




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qurilish montaj ishlari mlrd.so'mda



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 4141,9 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu jami investitsiyalarning 73,4 foizini tashkil etdi.

Mavjud ob'ektlarni rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishni kengaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1004,5 mlrd.so'mni yoki umumiy hajmining 17,8% ni tashkil etdi. Qolgan 8,8% yoki 500,0 mlrd.so'm boshqa sohalarga yo'naltirildi.

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga Kiritilgan investitsiyalar % da




Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida noishlab chiqarish sohasi yetakchilik qilmoqda. Ushbu sohada barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 3120,3 mlrd.so'm yoki asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 55,3 foizi o'zlashtirildi. Uy-joy qurilishi umumiy qiymati 566,6 mlrd.so'mni yoki umumiy hajmning 10,0 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan to'gridan-to'g'ri chet-el investitsiyalari va kreditlari

Shahar va tumanlar	2018 yil yanvar-iyun oylarida mlrd.so'mda	2019 yil yanvar-iyun oylarida mlrd.so'mda	2018 yilga nisbatan % da
Namangan viloyati	160,7	1069,4	5,9 marta ko'p
Namangan sh.	61,4	193,6	2,8 m
tumanlar:			
Mingbuloq	80,2	86,0	95,5
Kosonsoy	-	42,1	
Namanagan	0,6	17	25 marta
Norin	-	103,8	
Pop	8,9	87,5	8,7 marta
To'raqo'rg'on	3,5	130,2	33 marta
Uychi	2,8	28	9 marta
Uchqo'rg'on	-	36,2	
Chortoq	3,1	31,8	9 marta
Chust	3,2	136,5	395 marta
Yangiqo'rg'on	-	176,7	



Qurilish ob'ektlari



2019 yil yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 429,3 ming kvadrat metr bo'lgan 3325 ta uy-joy qurilishi amalga oshirildi, shu jumladan, qishloq joylarda 275,4 ming kvadrat metr bo'lgan 2207 ta uy-joy qurib bitkazildi.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Mas'ul:

Б. Турсинов

Telefon:

(0371) 230-84-85